

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
VETERINARIYA ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK FAKULTETI
Yaylov chorvachiligi va qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish kafedrası.

KURS ISHI

MAVZU: 1000 BOSH QO'YGA MO'LJALLANGAN QO'YXONA.

Bajardi: 312 - guruh talabasi

Abduvaxobova B.

Tekshirdi: professor.

Hatamov A.

SAMARQAND 2015

KURS ISHI № 22

**1000 BOSH QORAKUL QO'YLARI UCHUN QUYXONA.
O'RTACHA TIRIK VAZNI 60 KG. QURILISH MATERIALLARI
YOG'OCH, QAMISH, TAXTA, XOM G'ISHT. BUXORO
VILOYATI TASHQI HARORAT -4 C⁰**

Mundarija

bet

Kirish	3
I. Chorvachilik fermalarini qurish uchun joy tanlash, qoy'lxonaning o'lchamlarini normativ asosida hisoblash	6
II. Fermani suv bilan ta'minlash va suvga bo'lgan talabini hisoblash	9
III. Yorug'likni hisoblash	11
IV. Suniy ventilyatsiyani namlik bo'yicha hisoblash	14
V. Issiqlik balansini hisoblash	17
VI. Go'ngni hisoblash va go'ngxona qurish	20
VII. Xulosa	23
VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	24

Kirish

Mustaqil O'zbekiston respublikasi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lidan shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda mamlakatimiz tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining moddiy jihatdan rivojlantirishni ta'minlash, ishlab chiqarishning barcha soxalarida iqtisodiy samaradorlikka erishish va sanoatning turli soxalarida maxsulot ishlab chiqarish holatini kengaytirishda qishloq xo'jaligining sermaxsul soxasi hisoblangan chorvachilik muhim soxa ahamiyatga ega.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib u qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik, echkichilik, tuyachilik, qo'ychilik va mo'ynachilik kabi xususiy qismlardan tashkil topgan .Shu o'rinda kurs ishi yuzasidan chiqadigan bo'lsak biz o'rganayotgan soha qo'ychilik sifatini go'sht, yog' sanoatini tivit va jun po'stinbop qorako'l va qorako'l teri kabi qimmatli maxsulot yetishtirib beradi.

Bugungi kunda oliy malakali chorvador mutaxassislarning oldidagi asosiy vazifasi oziq-ovqat sanoati va yingil sanoatni xom ashyo bilan taminlash, hayvonlar va parrandalarni bosh sonini ko'paytirish, hayvonlarni maxsuldorligini oshirish maxsulot sanoatini yaxshilash, chorvachilikni mexanizatsiyalashtirish va aftomatlashtirish konisator texnologiyalarni joriy etish .

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va malakalarini joriy etishdan iborat.

Hayvonlarni saqlash asrash oziqlantirish ulardan foydalanish sog'ish texnologiyalarni rivojlantirishda molxonalarda turli xil yuqimli kasalliklarni oldini olish veterinariya sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilish bevosita zoogigiyena faniga bog'liq.

Odatda chorvachilik binolarini qurishda, loyihalashda va qayta jihozlashda zoogigiyena va veterinariya sanitariya talablariga qat'iy amal qilish shart.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini gigiyenasi yoki zoogigiyena fani hayvonlar sog'ligini saqlash ularni oziqlantirish sug'orish asrash parvarish qilish va o'stirish yaxshilash hamda chorva mollarini maxsulotlarini ko'paytirishni o'rgatadi. Zoogigiyena chorvachilik hayvonlarini molxonalarda saqlashda joylardan to'g'ri foydalanish ferma va kompilek qurish uchun joy tanlash, chorva binolarini joylashtirish va qo'rish sifati foydalaniladigan yir maydonini normasi binolar holati va mekro iqlimini havoni aylanish mexanizatsiyalardan foydalanish kabi ishlar bilan shug'illanadi. Shu bilan bir qatorda zoogigiyena fani sog'lom nasl yitishirish chorva hayvonlarining zotini yaxshilash ilg'or yutiqlarga qo'llash orqali chorvachilikda yuqori sifatli maxso'lot yitishirish bilan sho'g'illanadi.

Hozirgi kunda mustaqil davlatimizda 11,5 ming bosh qo'y echki bo'lib 20 ming tonna jun yitkazishda hamda go'shtni 20% ga ko'paytirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari dunyo bo'yicha 7-8 ming bosh qo'y sog'iladi. Jumladan Fransiyada 670 ming, Bolgariyada 300 ming, Italiyada 500 ming Ro'menyada 400 ming bosh qo'y sog'ilib, Bolgariyada 15 tonna pishloq tayyorlanadi.

Shundan ko'rinib turibdiki qo'ychilikni rivojlantirish maxso'lotlarni ko'paytirish yo'llarini izlash hozirgi ko'nniing dolzarb vazefasi hisoblanadi.

Chorvachilik binolarini qurish muhim texnologik jarayon bo'lib binolar qurish uchun birinchi navbatda joy tanlanadi. Qurilishda joy tanlashda zoovetrinariya mutaxasislari ishtirokida komissiya tuziladi. Qurilish uchun ajratilgan joy gigiyena, zoovetrinariya, va iqtisodiy talablarga lavob berish kerak.

Tanlangan joy oziqlarini qaytarish maxsulotlarini va chiqindilarni chiqarish va hayvonlarni yaylovga haydash uchun qulay bo'lishi kerak.

Tuproq turli xil infelsiyalar bilan zararlanmagan bo'lishi kerak. Qurilishni tuman epeztalogik xaritasi asosida olib boriladi. Chunki bino qo'rish uchun tanlangan joyda yuqimli kasallik chiqmagan bo'lishi kerak.

Bino uchun tanlangan joy chuqur yir osti suvlari o'zoq, havo va suvni yazshi o'tkazadigan va shimadigan bo'lishi kerak.

Joy organik moddalar chiqindilar bilan ifloslanmagan, botqoq va suv bosadigan joylari yaramaydi. Qurilish quriladigan joylar ochiq diyarli tekis janubga yoki janubiy sharqqa qarab 3 C ga qiya bo'lishi kerak. Shuningdek kuchli shamoldan, qum va qorlarni uyib yuborilishidan to'silgan bo'lishi kerak.

Ferma va yaylov o'rtasidan temir yo'l, katta tosh yo'llar, jarliklar, anhor o'tmasligi kerak.

Ferma uchun joy tanlashda sanitariya oralig'I ga e'tibor berilsin. Masalan qoramolchilik, chuchqachilik, otchilik qo'ychilik fermasi oralig'ida etibor berilsin. Kamida 150m parrandachilik 200, quyonchilik va mo'ynachilik 1500m iqtisoslashtirilgan sanoat komplekslari 1500m parrandachilik fermalari 1000m sut va boshqa mahsulot hayvonlari 1500m ozuqa omborxonalari 300m mineral o'g'it va yadroximikatlar 300m va yo'llardan 300m. Bietermik chuqurlardan 1000m va hokozo bo'lishi kerak.

Ferma loyihalanganda va alohida binolar qo'rilishida texnika xavfsizligi yong'in va sanitariya qoidalariga zid bo'lmasa asosiy binolar poydevoriga va yoniga yir qo'shib qo'shimcha binolar qo'shilsa ancha yaxshi bo'ladi. Chorvachilik binolarining hajmini mollar soniga qarab qo'shiladi, kamida 150m parrandachilik 200m, quyonchilik va mo'ynachilik 2500m, ixtisoslashtirilgan sanoat komplekslari 1500m, parrandachilik fabrikalari 1000m, sut va boshqa mahsulot hajmlari 1500m, ozuqa omborxonalari 300m mineral o'g'it va yadroximikatlar 300m va yo'llar 300m bietermik chuqurlardan 1000m va hokozo bo'lishi kerak.

Ferma loyihalashtirishda alohida binolar qurilganda texnika xavfsizligi yong'in va sanitariya qoidalariga zid bo'lishiga asosiy binolar poydevoriga va yoniga zich qilib qo'shimcha binolar qo'shilsa ancha yaxshi bo'ladi.

Chorvachilik binolarini hajmini mollar soniga qarab quriladi. Masalan, qo'ylar uchun $0,8 - 2 \text{ m}^2$ joy har bir sog'im sigirlar uchun $10-12\text{m}^2$ bo'rdoqiga boqiladigan molar uchun 5m^2 bir bosh ona cho'chqaga 16m^2 bo'rdoqiga boqiladigan cho'chqa uchun $1,5-2\text{m}^2$ joy olinadi.

Chorvachilik bilan aholi punkitidan pastda bo'lishi va shamol oqimi ferma tomonga yo'l oladigan bo'lishi kerak. Binolar qurilishida fermaga qo'shimcha ravishta 10-20% qo'shimcha joy olinadi. Qo'ychilik binolari qurishda esa 30% issiqxona binosi qurishadi.

Qo'yxonalar 500-1000 boshga mo'ljallanib G.P.simon va aylanma qo'tan shaklida quriladi. Qirg'izistonda N.I.Ferapontov tavsiya etgan ko'chma qo'tanlar ko'p ishlatiladi. Bu qo'tan 600-700ta bosh qo'yga mo'ljallangan bo'lib uzunligi 32m va eni 800m bo'ladi.

Qo'tanning ustunlari temir trubadan, usti taxta, atrofi zichlangan paxol yoki yantoq bilan o'ralgan usti paxol bilan yopilgan. Bu qo'tanni 2 kishi 2 ta yuk aftamashinasida bir joydan ikkinchi joyga 1 soatda ko'chirishi mumkin.

Bu kurs ishida bir bosh qo'yga 1.1 m^2 , 1000 bosh qo'yga esa 1100 m^2 joy talab etiladi. 15% issiqxona uchun 160m^2 joy talab etiladi. Qo'ylar uchun jami yer maydoni 1265m^2 , qo'yxonaning uzunligi 105 m, eni esa 12 m.

Derazalar o'lchami $1 \times 1,5$. Qo'yxonaning yuzasi $105 \times 12 = 1260\text{m}^2$ bo'ladi.

Derazalar sonini topish uchun pol yuzasini oynalangan deraza yuzsiga bo'lamiz $1260:20=63:1.5=42$ ta deraza kerak bo'ladi.

Suv aholi sanoati va qishloq xo'jaligini ehtiyojini qondirish, yong'inga qarshi kurash va boshqa ishlarda taminlashda ishlatiladi. Qishloq xo'jaligini suv bilan taminlashda hamma turdagi xo'jaliklar va tuman hududidagi ishlab chiqarish korxonalarini hammasi kiradi. Suv bilan taminlash quyidagicha bo'ladi.

a) markazlashtirilgan shu oblastdagi hamma suv oladigan joylar bir vadopiravotdan ichadi.

b) markazlashtirilgan har bir istalgan nuqtasi uchun alohida qurilish bo'ladi.

v) aralash taminlanish- bunga hamma markazlashgan inshootdan va alohida nuqtalardan suv olinadi.

Chorvachilik binolarini suv bilan taminlashda yer osti va yer usti suvlaridan foydalaniladi. Yer osti suvlari yer usti suvlariga qaraganda zararsizlantirish talab qilinmaydi. Hayvonlarni suvga bo'lgan talabi qo'ydagicha sigirlar-80 l, buqa va g'o'najinlar-50 l, bo'zoqlar 20-30 , ishchi otlar-60 l, baytallar-80 l, nasilli ayg'irlar-70 l, toylar-10-45 l, qo'ylar- 6-8 l, cho'chqalar-5-60 l, parrandalar-1 l. Veterinariya davolash joylarida har bir katta molga -80 l maydalariga -60 l tug'ri keladi.

Suv bilan ta'menlanish bir qancha operatsiyalarni bajaradi ;Masalan suv kelmagunga qadar, tozalash va sifatini yaxshilash va boshqalar.

Suv maxsus suv yig'ish inshootlarida yig'ilib ular istalgan po'nkitlardan baland quriladi va nasos orqali suv balandga ko'tariladi. Shahar va yirik aholi yashash joylarida markazlashtirilgan suv bilan taminlanadi. Ko'pgina yir usti suvlari, suv omborlari qishloq xujalik joylarda artezan quduqlardan foydalaniladi.

Bir bosh qo'yga bir kunda 6 l suv talab qilinadi.

Jami boshga esa

$$1000 \times 6 = 6000$$

Bir ko'nlik suvga 15% yong'in xavfsizligi uchun qo'shimcha suv saqlaydi.

$$6000 \text{-----} 100\%$$

$$X \text{-----} 15\% \quad X = 6000 \times 15 / 100 = 900$$

Demak bir ko'nda jami. $6000 + 900 = 6900$ l

Suv saqlash kerak.

Yoro'g'lik yuqori bialogek ta'sirga ega bo'lib chorva mollari va parrandalar organezmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Molxonalar va parrandaxonalarni yitarli miqdorda yoro'g'lik bilan ta'menlashni, ko'pchilik kasalliklarni oldini olish muhim faktor hisoblanadi.

Misol uchun agar yoro'g'lik miqdori yitarli bo'lmasa katta yoshli hayvonlarda astiomolyatsiya kasalligi, yosh hayvonlarda esa raxit kasalligi kelib chiqadi. Chorvachilik binolari va parrandaxonalarida tabiiy va suniy yoro'g'lik miqdorlarini aniqlash amalyotda muhim ahamyatga ega hisoblanadi.

Tabiiy yoro'g'likni aniqlashda qo'ydagi usullar ishlatiladi.

1. Giometrik usul- bu usul juda oddiy bo'lib chorvachilik binolarini loyihalashtirish davrida ishlatiladi. Bu usul yoro'g'lik koyfitsentini aniqlashda yoro'g'lik koyfitsenti [YoK] deb oynalangan deraza yuzasidan tushayotgan yoro'g'likning pol yuzasiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Yoro'g'lik koyfitsentining meyorlari quydagilar.

- | | |
|---|-------------|
| 1. Qoramollar uchun | 1;10 , 1;15 |
| 2. Qo'ylar uchun | 1;20 |
| 3. Yilqilar uchun | 1;10 , 1;15 |
| 4. Chuchqalar uchun | 1;10 |
| 5. Parrandalar uchun | 1;10 , 1;12 |
| 6. Mo'ynali hayvonlar uchun | 1;10 , 1;13 |
| 7. Bo'rdoqiga boqiladigan hayvonlar uchun | 1;25, 1;30 |

Sunday qilib yoro'g'lik koyfitsentini binoning pol yuzasini oynalangan deraza yuzasiga bo'lib hisoblanadi. Qo'yxonada tabiiy yoro'g'lik geometrik usulda

aniqlashda pol yuzasiga derazalar yuzasining nisbati bilan ulchanadi. Normatev bo'yicha qo'yxonada bu 1;25 bo'lishi kerak.

Yani yoro'g'lik koyfitsenti YoK 1;20 ga teng.

Sun'iy yoro'g'likni aniqlash.

Buning uchun qo'yxonalarni yoritiladigan lampochkalarining soni aniqlashda va bir dona lampochkaning quvvatiga ko'paytiriladi. Olingan natejani pol yuzasiga bo'lamiz. Bo' vaqitda 1m^2 pol yo'ziga to'g'ri keladigan solishtirma quvvat topiladi V_t/m^2 birgalikdagi yoro'g'lik mosga aylantirish uchun tokni yo'nalishiga qarab qo'ydagi koyfitsentlarga ko'paytiriladi.

Lampochkaning quvvati 100 V_t gacha , 100 V_t va undan yuqori qizdirish lampasi 2,0 ; 2,5 Lyumendantli lampa 6,5 ; 8,0.

Suniy yoro'g'likni hisoblash

1m^2 pol yuziga to'g'ri keladigan solishtirma quvvat topiladi

$S.q = \text{Lampa soni} \times \text{lampa quvvati} / \text{pol yuzasi}$

Lampalar soni qo'ydagicha topiladi .

$N = \text{Pol yuzasi} \times V_t/\text{m}^2 / \text{lampa qo'vvati} =$

$1260 \times 5 / 100 = 63$ ta lampochka kerak bo'ladi

Buni lyuksga aylantirish uchun 2ga ko'paytiramiz

$63 \times 2 = 126$ lyuks.

Namlik bo'yicha suniy ventilyatsiyani hisoblash qo'yxona ichida namlik-issiqlik rejimini meyorda saqlash va havo tarkibidagi zararli gazlarni qo'yxonalardan chiqarish uchun xizmat qiladi.

Qo'yxonalardan namlik quydagi manbalardan hosil bo'ladi.

1. Qo'yxonadagi hayvonlar tamonidan ajratilayotgan namlik 75-80%.
2. Atmosfera havosi bilan qo'yxonaga kiritilayotagan namlik 10-15%
3. Poldan ko'tarilayotgan qo'shimcha hamma hayvonlar uchun 10%,
chuchqalar uchun 25% ni tashkil etadi.

Namlik bo'yicha suniy ventiliyatsiya quydagi formula bilan hisoblanadi.

$$Lm^3 = Q + 10(25)\% / q_1 - q_2$$

Suniy ventiliyatsiyani quydagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$Lm^3 = Q + 10\% / q_1 - q_2$$

1. Qo'yxonada jami qo'ylar ajratgan namlikni hisoblaymiz.

a) 1 bosh 60 kg qo'y 1 kunda 151 g/s suv ajratadi.

b) Jami qo'ylar 1 kunda

$$1000 * 151 = 151000 \text{ g/s}$$

2. Poldan ko'tariladigan 10% namlikni aniqlaymiz.

$$151000 \text{-----} 100\%$$

$$X = 151000 * 10 / 100 = 15100$$

$$X \text{-----} 10\%$$

3. q_1 -qo'yxona ichidagi mutloq namlikni hisoblaymiz.

Maksimal namlik +8-8.02 g/s

$$8.02 \text{-----} 100\%$$

$$X = 8.02 * 70 / 100 = 5.6 \text{ g/s}$$

$$X \text{-----} 70\%$$

4. q_2 -Buxoro viloyatida tashqi havoning mutloq namligi.

$$\left. \begin{array}{l} \text{Noyabr} \\ \text{Dekabr} \\ \text{Yanvar} \\ \text{Fevral} \end{array} \right\} 16,15/4 = 4 \text{ g/s}$$

5. 1 soatda almashinadigan havo hajmini hisoblang.

$$Lm^3 = Q + 10\% / q_1 - q_2 = 151000 + 15100 / 5.6 - 4 = 166100 / 1.2 = 103812.5 \text{ g/s}$$

6. 1 soatda havo almashinish soni topiladi.

$$Am^3 = 105 * 12 * 3 = 3780$$

$$Lm^3 / Am^3 = 103812.5 / 3780 = 27 \text{ marta}$$

7. 1 bosh qo'yga to'g'ri keladigan sof havo hajmini topamiz.

$$Lm^3 / n = 103812.5 / 1000 = 103.8125 \text{ m}^3$$

8. Havo chiqaruvchi ventiliyatsiya trubalari umumiy ko'ndalang kesimi yuzasini topamiz. Buning uchun ichki va tashqi haroratlar farqi topiladi.

$$+8^0C - (-4) = 12^0C$$

$$X = Lm^3 / V * t = 103812.5 / 1.15 * 3600 = 103812.5 / 4140 = 25 \text{ m}^3$$

9. Havo chiqaruvchi trubalar sonini hisoblab topamiz.

$$X / 0 = 25 / 0.8 * 0.8 = 25 / 0.64 = 39 \text{ dona.}$$

10. Havo kirituvchi kanallar ko'ndalang kesm yuzasi havo chiqaruvchi trubalar yuzasining 70% ni tashkil qiladi. Kirituvchi 0,4x0,4

$$25 \text{ ----- } 100\%$$

$$X = 25 * 70 / 100 = 17.5 \text{ m}^2$$

$$X \text{ ----- } 70\%$$

11. Havo kirituvchi kanallarning soni topiladi. Buning uchun umumiy yuzasi 1 dona kirituvchi kanalning yuzasiga bulinadi.

$$X = 17.5 / 0.16 = 109 \text{ dona.}$$

Qo'yxonada issiqlik balansini hisoblash.

$$Q_j = \Delta t * (L * 0.24 + \sum KF) + W$$

1. Qo'yxonada hosil bo'ladigan issiqlikni topamiz.

a) 1 bosh qo'y -316 kkal/s issiqlik ajratadi.

b) 1000 bosh qo'y esa

$$1000 * 316 = 316000 \text{ kkal/s}$$

2. Sarflanadigan issiqlik hisoblaymiz.

$$Q_{\text{vent}} = \Delta t * (L * 0.24)$$

Havoni isitish uchun sarflangan issiqlikni topamiz.

$$\Delta t \text{ harorat farqi } +6 - (-4) = 10$$

Lm^3 -ventilyatsiya havosini kg ga aylantiramiz $1m^3$ havo 745 millimetr simob ustuniga teng havo og'irligi 1,286kg og'irlikka teng.

$$103812.5 * 1,286 = 133502.87 \text{ kg } 1^\circ C \text{ ga isitish uchun}$$
$$133502.87 * 0,24 = 32040.6$$

Jami havo miqdori harorat farqigacha isitiladi.

$$32040.6 * 12 = 384487.2 \text{ kkal/s}$$

3. Tusiqlarni isitish uchun sarflangan issiqlikni hisoblaymiz.

a) Pol yuzasi $X = 105 * 12 = 1260 \text{ m}^2$

Issiqlik utkazuvchanligi $1260 * 0,04 = 50.4$

b) Shift yuzasi $105 * 12 = 1260 \text{ m}^2$

Issiqlik utkazuvchanligi $1260 * 0,05 = 63$

c) Deraza $(1 * 1,5) * 42 = 63 \text{ m}^2$

Issiqlik utkazuvchanligi $63 * 5 = 315$

d) Eshik $(2,2 * 2,5) * 5 = 27.5 \text{ m}^2$

Issiqlik utkazuvchanligi $27.5 * 4 = 110$

e) Umumiy devor $(105 + 81 + 12 * 2) * 3 = 630 \text{ m}^2$

f) Sof devor yuzasi

$$630 - (63 + 27.5) = 630 - 90.5 = 539.5 \text{ m}^2$$

Tusiqlar nomi	Tusiq yuzasi m ²	Issiqlik o'tkazuvchanlik	$\sum KF$
Pol	1260	0,04	50.4
Shift	1260	0,05	63

Deraza	63	5	315
Eshik	27.5	4	110
Sof devor	558.5	0,80	431.6
13%			111.3

Qish oylarida O'zbekiston sharoitida deraza, eshik, devor issiqlikni utkazuvchanligi 13% ga oshadi.

$$315+110+431.6=856.6 \text{ kkal/s}$$

$$856.6 \text{-----} 100\%$$

$$x \text{-----} 13\% \quad X = 856.6 * 13 / 100 = 111.3 \text{ kkal/s}$$

$$50.4+63+315+110+431.6+111.3=1081.3 \text{ kkal/s}$$

Qo'yxonadagi jami to'siqlarni isitish uchun quydagi miqdorda issiqlik saqlanadi.

$$Q_{to's} = \Delta t * (\sum KF) = 12 * 1081.3 = 12975.6 \text{ kkal/s}$$

$$4. \quad Q_{nam} - W_6 * 0,595$$

Poldan ko'tariladigan qo'shimcha namlik uchun sariflangan issiqlik miqdori topiladi.

$$15100 * 0,595 = 8984.5 \text{ kkal/s}$$

5. Hosil bo'layotgan va sariflanayotgan issiqlik orasidagi farq topiladi.

$$D_f = Q_j - (Q_{vent} + Q_{to's} + Q_{nam})$$

$$D_f = 316000 - (384487.2 + 12975.6 + 8984.5) = 316000 - 406447.3 = -90447.3 \text{ kkal/s}$$

6. Qo'yxonadagi ____ balans aniqlanadi.

$$D_t = Q_j - W_6 / L * 0,24 + \sum 13\%$$

$$D_t = 316000 - 8984.5 / 103812.5 * 0.24 + 1081.3 = 307015.5 / 25996.3 = 11.8$$

7. Qo'yxonaning ichki harorati aniqlanadi.

$$t^0_{C_{ichki}} = \Delta t^0_{nol} - t^0_{tash}$$

$$t^0_{C_{ichki}} = 11.8 - 4 = 7.8$$

8. Qo'yxonadagi nisbiy namlik.

$$R = q_1 * 100 / E_{ichki} = 5.6 * 100 / 7.91 = 70.7\%$$

Hayvonlar tamonidan ajratiladigan gung doimo halq xo'jaligida mahalliy o'g'it sifatida ishlatilib kelingan. Gung tarkibida o'simlik uchun zarur bo'lgan azot birikmalari 42-43% ga yetadi. Molxonadan hayvonlar tomonidan ajratilgan gung quydagi usullarda saqlanadi.

1. Sovuq usul-bu usulda kunlik chiqarilayotgan gung bosib boriladi. Bunda gung orasida anaerob sharoit vujudga keladi. Gung orasidagi harorat +30°C-35°C. Lekin gungni sanitariya sharoiti pasayadi.

2. Issiq usul-Bunda kunlik chiqarilgan gung 4-5 kun davomida zichlanmaydi. Buning natijasida gung orasida aerob sharoit vujudga keladi. Harorat gung orasida +60°C-70°C gacha kutarilib ketadi.

Shunday qilib xujaliklarda issiq usulda gungni saqlash vetrinariya nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega.

Chorvachilik fermalarida gungxonalar ikki xil usulda quritiladi.

1.Yer ustida nam o'tkazmaydigan quriladi. Gungxonalarning chekka balandligi 25-30 m gacha bo'ladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalari tamonidan ajratilayotgan gung quydagi usullar yordamida aniqlanadi.

1.L

emmerman usuli-bu usul bir sutgada 1 tonna og'irlikdagi hayvonlarning ajratgan gungi quydagi formula bilan aniqlanadi.

$$X = (24/2 + n) * 4$$

Bunda:

$X=1$ tonna og'irlikdagi hayvonlarning 1 sutkada ajratgan gung kg hisobida.
24/2 -1 tonna og'irlikdagi hayvonlarning 1 sutkada 24 kg quruq ozuqa esa shuning 50% tezak bo'lib ajraladi.

n-1 tonna og'irlikdagi hayvonlarga tushaladigan tushama kg.

ϕ -kayfitsent

1.Pereturin usuli-bu usul hayvonlarga normal ozuqa berilganda va sutkada 1 tonna og'irlikdagi hayvonlar qancha gung ajratishi aniqlanadi.

Masalan: 1 tonna og'irlikdagi qoramol 87,8 kg, ot 53 kg, quy 48 kg, chuchqa 29 kg gung ajratadi.

Pereturin usuli buyicha kafedra professor o'qituvchilari olib brogan tekshirishlar natijasida 1 yilda 1 bosh hayvon quydagi miqdorda gung ajratishi aniqlangan.

Qoramol 10 tonna, otlar 7 tonna, quylar 0,5-0,7 tonna, chuchqa 1,2 tonna, tovuq 5,5 kg, g'oz 11 kg, o'rdak 8,5 kg, kabutar 2,75 kg.

Gungxonalarning ulchamlari hisoblash payitida 1 m³ hajmdagi gung qancha og'irlikka ega ekanligi etiborga olinadi.

1.Yangi gung bo'lsa 300-400 kg.

2.Zichlangan gung bo'lsa 700 kg.

3.Yarim chirigan gung bo'lsa 800 kg.

4.To'liq chirigan gung bo'lsa 900 kg.

Quyxonani gungdan tozalash va gungni hisoblash.

1.Limmerman usulda 1 tonna vaznidagi quylar 1kunda ajratgan gungni hisoblaymiz.

$X=(24/2+4)*4=(12+4)*4=64$ kg.

2.Jami quylar tirik vazning hisoblaymiz. 1 bosh 60 kg $X=1600*40=60000$ kg=60 tonna.

3.Jami quylar 1 kunda ajratgan gungni hisobi.

$60 \text{ tonna} * 64 \text{ kg} = 3840 \text{ kg} = 3.840 \text{ t}$.

4.Jami quylar esa 90 kuda ajratgan gungini hisoblaymiz $90 \cdot 3.840 = 345.600$ tonna.

5.Gungxona qurish 1 m^3 ga 700 kg gung joylasak 161,28 tonnasiga m^3 ga joylashishi hisobi.

$$1 \text{ m}^3 \text{-----} 700$$

$$x \text{-----} 345.6 = 1 \cdot 345.6 / 700 = 493.7 \approx 494 \text{ m}^3$$

6.Gungxona yuzasini hisoblaymiz

$$S_{\text{uchburchak}} 8 \cdot 2 / 2 = 8 \text{ m}^2$$

$$S_{\text{trapetsiya}} 8 + 6 / 2 \cdot 1 = 7 \text{ m}^2$$

$$S_{\text{gungxona}} 8 + 7 = 11 \text{ m}^2$$

7.Gungxona yuzasini payonmetrga aylantiramiz. $11 \text{ m}^2 \cdot 1 = 11 \text{ m}^3$.

8.Gungxona uzunligini topamiz.

$$494 / 11 = 45 \text{ m.}$$

$45 / 2 = 22.5$ uzunlikdagi 2 ta gungxona quramiz.

Tushamani hisoblaymiz.

1 tonna tirik vazinli quyga 4kg tushama sarflasak jami boshga 1 kunda $60 \cdot 1000 = 60000$; $60 \cdot 4 = 240$ kg tushama kerak.

Jami quylarga 90 kunda sariflanadigan tushamani hisoblaymiz. $240 \text{ kg} \cdot 90 = 21600 = 21.6$ tonna.

Xulosa

O'zbekiston Respo'blikasi mustaqillikka erishgach qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga, ulardan olinadigan chorva mahsulotlarini sifatini yaxshilashga va aholi istemoli uchun kerakli vitaminlar va moddalarni yetkazib berishga alohida e'tibor berilmoqda.

Qo'ychilik ushbu chorvachilik tarmoqlari uchun alohida ahamiyatga ega. Bizning kurs ishi mavzusiga berilgan 1000 bosh qo'yga mo'ljallangan qo'yxona Buxoro viloyatida joylashgan bo'lib, binoning uzunligi normativ asosida 105m,

balandligi 3m,eni esa 12m qilib qurilgan. Ushbu qo'ylar tomonidan ajratilgan go'ngni saqlash uchun 2 ta 22.5m uzunlikdagi go'ngxona qurilgan. Qo'yxonadagi issiqlik balansi esa -160537kkal/s.

Qo'ylarning yorug'likga bo'lgan talabini qondirish uchun tabiiy va sun'iy yorug'lik bilan taminlanadi. 1000 boshga mo'ljallangan qo'yxonada tabiiy yorug'lik 1;20 nisbatan sun'iy yorug'lik esa 10 lyuks ya'ni 55ta lampochka bilan yoritiladi.

Qo'yxonadagi namlik 70% ni tashkil qilgan.

Ushbu xo'jalik Buxoro viloyati chorva mahsulotlari bilan taminlashga va chorcachilikni rivojlantirishga va chorcachilikni rivojlantirishga o'z hisobini qo'shib rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Zoogigiyena.Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi.Musinov Y.X.Chalaboyev A.Sh Samarqand-2009.

2.Zoogigiyena "Maruzalar kursi" Izbosarov U.K. Musinov Y.X. Chalaboyev A.Sh. Samarqand-2009.

3.Qishloq xo'jalik hayvonlar gigiyenasi Suvonqulov Y.A.Toshkent ''Mehnat''-1994.

4.Qishloq xo'jalik hayvonlari gigiyenasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent ''Mehnat-1990.

5.Zoogigiyena. Kojsh.I.I. Kamojniy.I.S. Volyakova.L.A. Iysterov.V.V. Moskva-2008.

